UO‘K 140.8

SINERGETIK DUNYOQARASHNING VUJUDGA KELISHI: INSON TAJRIBASINING ILMIY VA NOILMIY O‘ZANLARI

I.I. Rizayev

Maqolada o‘z-o‘zini tashkillashtirish konsepsiyasining tarixiy retrospektivasi o‘rganilib, ma’lumotlarning tematik tabiati, ushbu g‘oyaning ko‘plab yo‘nalishlari bilan bog‘liq qiyinchiliklar tadqiq etilgan. Sinergetika va o‘z-o‘zini tashkillashtirish g‘oyalari bilan bog‘liq tarixiy manbalar, xususan, Antik davr va qadimgi Sharq mifologiyasidagi tartib va xaos o‘rtasidagi munosabat g‘oyalari o‘rganilgan. Shuningdek, Sharq va G‘arbda qo‘llaniladigan turli xil tafakkur tarzlari qiyoslanib, o‘z-o‘zini tashkillashtirishning mantiqiy jihatlari va mif mantig‘i ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘z-o‘zini tashkillashtirish, tarixiy retrospektiva, bilishning ilmiy shakllari, sinergetika, tartib, xaos, antik davr, qadimgi Sharq mifologiyasi*.

В статье изучается историческая ретроспектива концепции самоорганизации, исследованы сложности, связанные с тематическим характером информации и множеством направлений данной идеи. Изучены исторические источники, связанные с идеями синергетики и самоорганизации, в частности, идеи античности и древневосточной мифологии о соотношении порядка и хаоса. Также подвергнуты сравнению различные типы мышления, применяемые на Востоке и Западе, рассмотрены логические аспекты самоорганизации и логика мифа.

Ключевые слова: *самоорганизация, историческая ретроспектива, научные формы познания, синергетика, порядок, хаос, античность, древневосточная мифология.*

O‘z-o‘zini tashkillashtirish konsepsiyasining tarixiy retrospektivasini yaratish bir qator sabablarga ko‘ra qiyin vazifa bo‘lib tuyuladi. Bu, birinchidan, kelajakdagi barcha tarixiy ma’lumotlarning mavzuga doir tabiati bilan, ikkinchidan esa, o‘z-o‘zini tashkillashtirish g‘oyasining ko‘p vektorliligi va o‘tmishda ham, kelajakda ham aynan fikrlashning amaliy imkonsizligi bilan bog‘liq.

Ilmiy bilimlarning paydo bo‘lishi va o‘zgarishining muntazamligi muammosini hal qilgan ko‘plab tadqiqotchilar har qanday ilmiy ishni yozishda umume’tirof etilgan davr va ko‘rib chiqilayotgan konsepsiya tarixiga murojaat qiladilar. Bu haqda R.Merton shunday yozgan edi: “Ilmiy g‘oyalarning tarixiy uzluksizligi bo‘yicha tadqiqotchining sa’y-harakatlari arqon ustidagi dorboz harakatlariga o‘xshaydi: har qanday tomonga sal kichikroq og‘ish bilan muvozanat yo‘qoladi. Bir tomondan, tadqiqotchi ilmiy g‘oyaning uzluksizligi to‘g‘risidagi qarashning o‘zi mavjud bo‘lmagan joyda noto‘g‘ri xulosa chiqarishi xavfini tug‘diradi. Boshqa tomondan, real hayotning uzluksizligi shunchaki e’tibordan chetda qolishi mumkin” [1. B. 106].

Avvalgi (“eski”) tadqiqotlar yangilari bilan aloqasi haqidagi savolga zamonaviy, to‘g‘rirog‘i, postmodernistik munosabat taklif qiladigan kontekst yanada murakkab muammo bo‘lib ko‘rinadi. Bunday nuqtayi nazar doirasida, san’atdagi, fandagi, falsafadagi yangilik, diqqat bilan ko‘rib chiqilsa, ma’lum va allaqachon mavjud bo‘lgan g‘oyalar bilan bog‘liq iqtiboslar va assotsiatsiyalar asosiga qurilganini ko‘rish mumkin. Assotsiativ qatlamlar har xil yo‘nalishlarda va har qanday tomonga yo‘nalishi mumkinligi sababli, “eski”ning muammosini hal qilish qiyin ko‘rinadi. Postmodern mafkurachilardan biri M.Fuko esa bunday turdagi diskursiv amaliyotlarni “to‘xtovsiz, diskret, jasoratli... tartibsiz va halokatli, ulug‘vor, cheksiz va ulkan qaynash” [2. B. 318] deb ta’riflaydi.

Biz o‘z-o‘zini tashkillashtirish nazariyasini va bilishning boshqa ilmiy yondashuvlarini birlashtiradigan olamni tavsiflashning umumiy modellarini muhokama qilish uchun keng tarixiy doiraga

e’tibor qaratamiz. Ushbu muammoni hal qilish sinergetika va o‘z-o‘zini tashkil etish g‘oyalari bilan bog‘lanishi mumkin bo‘lgan juda ko‘p tarixiy materialni hisobga olgan holda fundamental tarixiy va nazariy tadqiqotlarni talab etadi.

Ushbu tadqiqot ishi uchun tarixiy retrospektiv asos bo‘lgan ta’kidni quyidagicha shakllantirish mumkin: garchi sinergetika insoniyat tamaddunining keyingi bosqichlarida kashf etilgan bo‘lsada, sinergetik ko‘rinishga yaqin bo‘lgan dunyoni tushunish modellari nafaqat ilmiy, balki insonga xos bo‘lgan dunyoni tushunishning boshqa sohalarida ham ildiz otgan. Ular afsona va miflarning eng qadimgi kosmogonik ko‘rinishlarida mavjud bo‘lgan. Shunga o‘xshash motivlarni ham G‘arb, ham Sharqning falsafiy tasavvurlarida uchratish mumkin. Diqqat bilan ko‘rib chiqilsa, insoniyat dunyoni bilish tajribasining barcha turlari: tush, badiiy fantaziya, kundalik bilish tartib va xaos, determinizm va tasodifiylik kabi hodisalar dinamikasining qutblanmagan nochiziqli sinergetika mantig‘iga tayanadi.

O‘z-o‘zini tashkillashtirish sohasidagi ko‘plab zamonaviy izlanishlarga asos va fundamental tadqiqot I.Prigojin va I.Stengerslarning “Xaosdan tartib tomon” (“Order out of chaos”) asaridir. Tadqiqotchilar mazkur asardagi prinsiplarga hamma vaqt murojaat qilib kelishadi.

Qadimgi kosmogoniyalarda taqdim etilgan tartib va xaos o‘rtasidagi munosabatlar dinamikasi mifologik va sinergetik dunyoqarashni ularning barcha mavjud o‘zgaruvchanligi bilan birlashtiradi. Shu ma’noda antik davr va qadimgi Sharq mifologiyasida tartib va xaos nisbati haqidagi g‘oyalarni batafsil ko‘rib chiqish lozim. Ko‘rsatilgan kosmogonik tizimlardan olingan ko‘plab misollarda ushbu qarashlarning asosiy qoidalari ochib berilgan, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Xaos va Kosmos (tartib) bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va ikki tomonlama munosabatlarda mavjud bo‘ladi. Xaos nafaqat tartibni yo‘q qilish manbai, balki uning tubida tartibning oldindan belgilangan strukturalarini o‘z ichiga olgan ijodiy kuchdir. Barcha fundamental mifologik tizimlarda dunyoning birlamchi tug‘ilishi Xudoning Zulmat (Eréb), Tubsizlik (Tártar), Xaos (Ibroniy mifologiyada Xudo Yaxve va maxluq Raxov, Misr afsonalarida Xudo Ra va ajdaho Apop va boshqalar) kuchlari ustidan g‘alaba qozonishi natijasida sodir bo‘lgan.

2. Xaos har doim tartibning ichki tomoni sifatida mavjud bo‘lib, u hamma vaqt yangi qayta strukturalash uchun potensiallikdir. Bu dunyo uzluksiz o‘zgarishining asosidir. Yangi tartib, albatta, qurbonlik natijasida vujudga keladi (Qahramon yoki Ma’budning vaqtincha o‘limi). O‘z-o‘zini tashkil etuvchi modellarda bu qurbonlik tartibning tug‘ilishi uchun ba’zi erkinlik darajalarining boshlang‘ich elementlaridan voz kechishga o‘xshaydi. Xudo yoki Qahramonning g‘alabasi natijasida xaos butunlay yo‘qolib ketmaydi, balki boshqa dunyo, Tartar, Aid, Leta, dunyo qulashi mumkin bo‘lgan tubsizlik shaklida toki yana qayta tug‘ilguncha davom etadi.

3. Tartibning tug‘ilish jarayoni xaos elementlarini qayta tartibga solish, ularni bir xil (bir jinsli)likdan mahrum qilish, mutlaqlashtirmaslik yoki bir-birini bostirmaslikdir, lekin shu bilan birga uyg‘un nisbatda bo‘lgan ba’zi asosiy tarkibiy qismlar (erkak-ayol, aktiv-passiv, samo-yer, oqilona-nooqilona, in-yan, suv-olov) ga bo‘lish orqali sodir bo‘ladi. Antik davr nuqtayi nazaridan bu nisbatlar oltin o‘rtaliqqa mos keladi. Har qanday yangi tartibni o‘zgartirish ushbu nisbatlarning buzilishi, uyg‘unlikning vaqtincha yo‘qolishi, keskinlik va azob-uqubatlar bilan bog‘liq. Sinergetik modellardagi tartib ham dastlab strukturalanmagan muhitda yaxlitlikning buzilishi, har bir elementda differensiatsiya xususiyatlarining paydo bo‘lishi tufayli tug‘iladi.

4. Tartibsizlikdan strukturaning tug‘ilishi markaz, manba atrofida joylashgan lokal tartiblarning paydo bo‘lishi orqali sodir bo‘ladi. Manbadagi strukturalar o‘z-o‘zini tashkillashtirishi alohida yirik bir mavzudir. Bundan tashqari, bunday strukturalarning joylashuvi o‘z-o‘zini tashkillashtirish tartibining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi.

5. Ideal tartib faqat nazoratsiz tashqi ta’sirlardan himoyalangan lokal tizimdagina bo‘lishi mumkin. U nosimmetrik va uzoq vaqt davomida o‘zining uyg‘un holatini saqlab turishga qodir. Tartib chegarani o‘rnatish, nazoratsizlikni rad etish sifatida yuzaga keladi. Mifologiyada ideal tartib shakli sfera va/yoki sharsimon obyektlar bilan bog‘liq. Yer sharsimon bo‘lib, undagi barcha hayot sikl bo‘ylab harakatlanadi. Tuxum ham hayotning universal ramzi sifatida barcha mifologik tizimlarning o‘zgarmas elementi, barcha boshlanishlarning asosi hisoblanadi. Mandala (buddizmda muqaddas ma’no yashiringan

takrorlanuvchi elementlarning geometrik naqshlari) tartibning arxetipi sifatida simmetrik, dumaloq shaklga ega. Dunyo tartibining sinergetik sxemalari kosmosning aynan shunday arxetipik shakllarining paydo bo‘lishini tasvirlaydi va ularni o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi deb hisoblaydi.

6. Dunyo Tartib va Xaos, bir xillik va geterogenlik, alohidalik va umumiylik, keskinlik (konflikt) va uyg‘unlik kabi dialektik kategoriyalarning siklik almashinuvida mavjud. Olamiy tartib urug‘i bir tomondan o‘z-o‘zidan qayta strukturalanish, lekin boshqa tomondan keskinlik va mushkul harakatlar natijasida dastlabki tartibsizlikdan tug‘iladi. Mifologik syujetlarda o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi elementlarning o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi, ularning protsessual tabiati, shuningdek, makon va zamondagi tartiblilik, sikllilik yaqqol kuzatiladi.

7. Dunyo tartiblanishining bu qonuniyatlari universaldir, mikrokosmos va makrokosmosga, Kosmosga, jamiyatga va insonning ichki dunyosiga xosdir. Sinergetika bilan shug‘ullanadiganlar ko‘pincha aynan xolizmga, dunyoning bo‘linmasligi g‘oyasiga tez-tez murojaat qilishadi [3. B. 106–107].

Albatta, turli mifologik-madaniy an’analardagi tartib va xaos g‘oyalarini batafsilroq ko‘rib chiqsak, nafaqat ko‘plab o‘xshashlik va umumiyliklarni, balki ko‘plab farqlarni ham topamiz. Masalan, ushbu farqlardan biri G‘arb (antik) va Sharq (xususan, Markaziy Osiyo) an’analari o‘rtasida kuzatiladi.

Faylasuf M.Ergasheva fikricha, bunday g‘oyalar bir tomondan sotsioformatsion omilga, boshqa tomondan Markaziy Osiyo va antik davr madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, aniq belgilangan va tabaqalashtirilgan dinamikani namoyish etadi. Biz arxaiklikdan rivojlangan qabilaviy munosabatlar orqali davlatchilik boshlangan jamiyatlarga o‘tganimiz sari bu madaniyatlarning dunyoqarash tizimida kosmos va xaos go‘yo bir-biridan tobora uzoqlashib borayotganday tuyuladi. Hamma joyda va hamma vaqt mavjud bo‘lgan xaos tartib olami bilan reglamentatsiya qilinadigan munosabatlar bilan chegaralanadi. “Ambivalent xaos va tartibli kosmos o‘rtasida almashinuv va o‘zaro bir-biriga o‘tish o‘rnatiladi, ular bir-birini taqozo qiladi hamda muvozanat holatida mavjud bo‘ladi”. Keyinchalik jamiyat shakllanish fazalarini bosib o‘tishi bilan kosmos hukmron kuchga aylanadi. “Kosmosni yaratadigan va hosil qiladigan xaos emas, aksincha, barcha ijodiy kuchlar kosmos tomonida, uni muayyan mavjud holatidan ko‘ra mukammalroq kosmik tartibni o‘rnatish yo‘lida harakat qiladi” [4. B. 28-32]. Bundan tashqari, Ergasheva koinot va xaos o‘rtasidagi munosabatlarni mos ravishda Markaziy Osiyo va antik tafakkur tarzi turlari bilan bog‘laydi. Dunyoning o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi manzarasi (olam dinamikasida tartib va xaos nisbiy muvozanatini talab qilish) modernistik dunyoqarashga qaraganda arxaikga ancha yaqinroq, G‘arb mentalitetiga nisbatan Sharqqa ko‘proq mos keladi.

Zamonaviy G‘arb ongining mantiqiy dominantini tavsiflovchi binar, chiziqli formal mantiq nochiziqli, o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi mantiqning teskarisi bo‘lib, mif mantig‘iga ko‘pxillik, ko‘p o‘lchovlilik, klassik kauzallikdan farq qiluvchi sababiylik bilan ham qarshi chiqadi. G.Sultanova bu afsona mantig‘ini tasavvur mantig‘i bilan bog‘laydi: “Real voqelikda sababiy ketma-ketlik vaqtinchalik ketma-ketlikdir. Mifning mo‘jizaviy voqeligida sabablar ketma-ketligi vaqtdan tashqarida bo‘lishi mumkin. Biror narsa sodir bo‘lishi uchun avvalgi muayyan holatlarda hech qanday o‘zgarishlarga hojat yo‘q” [5. B. 21-22]. Shuningdek, o‘z-o‘zini tashkillashtirish konsepsiyasi chiziqli fikrlash mantig‘idan kelib chiqadigan vaqt va sabablarga nisbatan butunlay boshqacha qarashlarni taklif qiladi. “Hozirgi voqealar ko‘pincha o‘tmish bilan bog‘lanadi, aslida esa bu holat kelajakdagi tartibning taqdiriga bog‘liq” [6. B. 48-49].

G‘arb tafakkuri an’anasi doirasida sinergetikaning paydo bo‘lishini zamonaviy G‘arb madaniyatining Sharqqa, zamonaviylikni esa arxaik, to‘g‘rirog‘i, neoarxaik tomonga qo‘ygan ma’lum bir qadami sifatida ko‘rish mumkin. Masalan, zamonaviy G‘arb madaniyatida bunday tendensiyalarning mavjudligi faylasuf olim X.Samatov tomonidan ko‘rsatilgan: “Bugungi kundagi yangi eskidan va hattoki eng eskidan vujudga keladi. Koinot yana arxaik sinkretizmni eslatuvchi olamga birlashadi, u obyektni subyektdan, ruhni tanadan, materiyani ongdan, odamni tabiatdan qanday ajratishni bilmaydi. Bu yaqinlik yangi fanning qadimiy mistik va tasavvuf ta’limotlari bilan muloqoti” [7. B. 49] uchun boshlang‘ich nuqta bo‘ldi. Uni birinchi bo‘lib boshla-

ganlardan biri fizik Fritof Kapra edi. O‘z davrida “Fizika Daosi” kitobi unga ulkan shuhrat keltirdi. U postklassik fizika yaratgan dunyoning manzarasi barcha mistik, ayniqsa, Sharq diniy va falsafiy tizimlari – hinduizm, buddizm, daosizm va dzen g‘oyalariga juda yaqin ekanligini isbotlaydi. “Fizika Daosi”ning uchinchi nashrida Kapra eski paradigmani yangisidan ajratib turadigan bir qancha mezonlarni shakllantiradi. Dunyo alohida elementlardan yig‘ilgan shunchaki struktura emas, balki bir butundir. Olam predmetlardan emas, balki jarayonlardan iborat, shuning uchun bilish qismdan butunga emas, balki butundan qismga qarab boradi” [8. B. 375].

To‘g‘ri, dialektika bilan o‘xshashlikni voqealar rivoji mantig‘iga oid umumiy g‘oyalar darajasida kuzatish mumkin, lekin sinergetika taklif qiladigan g‘oyalar va natijalarning butun majmuasi darajasida emas.

B.Raxmanov sinergetik g‘oyalarning tarixiy ildizlarini o‘rganar ekan, ko‘plab nazariyalarda tizimli sinergetik motivlarning mavjudligini ko‘radi. U tadqiqotida bunday motivlarning mavjudligini qayd etgan Yevropa faylasuflarining ro‘yxatini keltiradi: “Bu elementlarni Pifagor, Geraklit, Empedokl, Aristotel, Platon, Sokrat, Lukretsiy Kar, Plotin va boshqalarning g‘oyalarida ham uchratish mumkin” [9. B. 2]. Bizning fikrimizcha, uni sezilarli darajada kengaytirish mumkin.

Yevropada olam birligi va yaxlitligining tizimli-sinergetik tamoyili D.Viko, I.Gerderning tug‘ilish va o‘limning siklik umumiy modelini qayd etgan qarashlarida o‘z aksini topgan. Ammo olam va jamiyatni tizimli-sinergetik idrok etishga yaqin bo‘lgan eng yetuk g‘oyalar G.Leybnits. A.Shopengauer, G.Gegel, K.Marks, G.Spenser, A.Bergson, Y.Xeyzinga, X.O.-i-Gasset, O.Shpengler, A.Toynbi, K.Yaspers, K.Popper. P.Sorokin va boshqalar nomlari bilan bog‘liq.

Biz tanlagan muammoning yoritilish rakursini hisobga olib, bu qatorda ayniqsa F.Nitsshe va o‘z davrida ma’rifatparvarlik, ratsionalizmga qarshi dastur ishlab chiqqan barcha faylasuflarning izlanishlarini eslatib o‘tishimiz kerak. Bu XX asr G‘arb madaniyatining mafkuraviy yo‘nalishlarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Nitsshe birinchilardan bo‘lib G‘arb tafakkurining formal mantiqqa haddan tashqari moyilligiga e’tibor qaratdi. U dunyoning iskanjasidan xalos bo‘lishni Dionisiy va Apollon hayotiy tamoyillari huquqlarini tenglashtirishda ko‘radi hamda bu sinergetik qarashlar bilan taqqoslaganda, xaosni qayta tiklash, uning potensial ijodiy kuchini payqash deb tushunish mumkin.

Sinergetika g‘oyalari bilan doimo bog‘liq bo‘lgan G‘arb faylasuflari va madaniyatshunoslarining nomlari ro‘yxatida O.Shpengler, A.Toynbi, K.Yaspers, P.Sorokinning madaniy-siklik nazariyalarini alohida eslatib o‘tish zarur. Sinergetika borliq jarayonlarining siklik xususiyatini o‘rganadi va ularni o‘z-o‘zini tashkillashtirish qonuniyatlari natijasida vujudga keladigan barqaror fazo-vaqt strukturasi deb hisoblab, ushbu hodisani o‘rganishda sotsial-madaniy dinamikaga alohida e’tibor beriladi.

G‘arbning falsafiy tafakkurida o‘tmishdoshlariga ega bo‘lgan sinergetik konstruksiyalardan kelib chiqadigan olam tartibi g‘oyasi ko‘plab tadqiqotchilarga Sharq falsafiy va diniy qarashlari g‘oyalari bilan yanada ko‘proq bog‘liq bo‘lib tuyuladi. Bu pozitsiyaning batafsil dalillarini F.Kapraning yuqorida qayd etilgan “Fizika Daosi” [10] asarida topamiz. Bu mavzu I.Prigojin va I.Stengers [11], S.P.Kurdyumov va E.N.Knyazeva [12], V.V.Vasilkova [13], S.Gomayunov [14], T.Grigoreva [15], shuningdek, B.O.Turayev, M.X.Ergasheva, B.U.Raxmanov, Z.O.Muminova, J.Ochilov [16], D.Bozarov [17] va boshqalar asarlarida qayta-qayta ko‘tarilgan.

Sinergetik munosabat bizga olam va undagi hamma narsaga bee’tiborlik bilan, uning yashirin mohiyatini anglamasdan munosabatda bo‘lishga imkon bermaydi. Sinergetika insonni dunyoning birligi, uni qismlarga parchalashning noadekvatligi, analitik usulning muvofiqligi haqidagi g‘oyaga qaytarishga harakat qiladi.

Yevropa sinergetikasida ong yangi mantig‘ining paydo bo‘lishi orqali yangi birlik qo‘lga kiritilishi kuzatiladi. U qat’iy va asosli ravishda ikkiga parchalovchi, Aristotelning “uchinchisi istisno” mantig‘iga qarshi turishga harakat qiladi. Sharq va G‘arb falsafasining yaqinlashishi dunyoga nisbatan sinergetik munosabatlarni qabul qilishning g‘oyaviy ta’siridan biridir.

Kundalik hayot – bu hodisalarning o‘ziga xos mantig‘i va bilimlar tizimi bilan ajralib turadigan, inson tajribasining o‘ziga xos tomoni. Bu biz dunyo bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan ij-

timoiy-madaniy amaliyotlarning ajralmas qismidir. Ilohiylik bilan bog‘liq bo‘lgan, sun’iy va ideallashtirilgan dunyodan farqli o‘laroq, kundalik hayot bizning madaniyatimiz va turmush tarzimizni shakllantiradigan kundalik harakatlarimiz va kundalik tartiblarimiz realligini aks ettiradi. Bu orqali ijtimoiy-madaniy voqelikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri takror ishlab chiqarish va o‘zgartirish amalga oshiriladi. Bu holatni M.Fuko “Tartibning sof amaliyoti va uning mavjud bo‘lish usullari” [18. B. 24] deb atagan edi. Ushbu amaliyotlar ularning aqliy asosi sifatida voqelikning qandaydir yarim ongli obraziga ega. Bu bizning nuqtayi nazarimizdan uning nochiziqli xarakteriga asoslanadi, voqealar rivojlanishining nochiziqli mantig‘iga tayanadi.

Kundalik hayot mantig‘i o‘zida nimani ifodalaydi? Ushbu masala bo‘yicha tadqiqotchilar har qanday empirik, sotsiologik tadqiqotlar darajasida uchraydigan kundalik ongning ambivalentligiga bir necha bor e’tibor qaratdilar [19. B. 54]. Bunday ambivalentlikda nafaqat oddiy ma’lumot yetishmasligi, balki voqelikning qandaydir yaxlit obraziga asoslangan his-tuyg‘ular mantig‘i ham mavjud.

Kundalik tasavvurlar vaqt bilan juda o‘ziga xos tarzda munosabatda bo‘ladi. Vaqtning ushbu modeli hayotiy voqealarning rivojlanishi, ularning izchil, sabab-oqibat zanjiriga mos kelishi an’anaviy formal mantiqdan, ya’ni chiziqli ko‘rinishdan uzoqdir. Kundalik vaqt oqimining nochiziqliligi sinergetikaning ekvifinallik (jarayonning boshlang‘ich nuqtasidan yetarlicha masofasi bilan o‘tmishdagi dastlabki pozitsiyalarga nisbatan hozirgi natijaning mustaqilligi yoki kam bog‘liqligi). prinsipiga mos keladi. Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, mantiqiy darajada kundalik ong ko‘p jihatdan mifologik ongga o‘xshaydi. Bu bizga haqiqatning sinergetik va kundalik modellari o‘rtasidagi o‘xshashlik, shuningdek, ushbu modellar tomonidan belgilanadigan kundalik voqealar dinamikasi haqidagi g‘oyalarning o‘xshashligi haqida gapirishga imkon beradi.

Ko‘p yillar davomida universal uslubiy va ba’zi hollarda mafkuraviy strategik tamoyillarning shakllanishi sinergetikaning tabiiy va ijtimoiy fanlarning turli sohalariga ta’siri kuchayishiga olib keldi. “Ijtimoiy sinergetika” tushunchasi endi oddiy metafora sifatida qaralmaydi, balki iqtisodiyot, siyosat, shaharsozlik, menejment va faoliyatning boshqa ijtimoiy sohalaridagi murakkab tizim obyektlarini yetarli darajada tavsiflash va tushuntirishni talab qiladigan haqiqiy bilim strategiyasi sifatida qabul qilinadi. Bugungi kunda sinergetika gumanitar sohaga faol kirib bormoqda, sotsiosinergetika va evolyutsion iqtisodiyot yo‘nalishlari paydo bo‘lmoqda, u psixologlar va o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilib, tilshunoslik, tarix, san’at dasturlari ishlab chiqilmoqda, shuningdek, sinergetik antropologiyani yaratish loyihasi amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi tadqiqotchilarga zamonaviy sinergetika rivojlanishida nisbatan avtonom ikki tendensiya mavjudligi haqidagi tezisni shakllantirishga imkon berdi.

Bir tomondan, sinergetika qat’iy matematik formulalar va tabiiy fanlarni tashkil etish tamoyillariga asoslanib, tirik va notirik tabiatning o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizimlarini o‘rganadigan ilmiy bilim sifatida rivojlanadi. Boshqa tomondan, sinergetika gumanitar va ijtimoiy sohalarga ham kirib, tabiatning o‘z-o‘zini tashkillashtirishining universal tushunchasi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, u evristik analogiyalar, metaforalar va majoziy kognitiv modellardan samarali foydalanadi. Ular orasida eng muhimi, shubhasiz, xaosdan tartibning vujudga kelishi nuqtayi nazaridan o‘z-o‘zini tashkillashtirish mexanizmini talqin qilishdir.

Xaos tushunchasi va uning murakkab tizimlar dinamikasidagi rolini tubdan qayta ko‘rib chiqish sinergetik fikrlash metodologiyasining asosiy momentlaridan biridir. Klassik falsafa, fan va madaniyatda betartiblik tushunchasi maksimal entropiya va mutlaq noaniqlikni anglatuvchi passiv, buzg‘unchi va vayronkor sifatida ustunlik qildi. Xaos har doim xavfli, jaholat va tanazzulga olib keladi deb hisoblangan. Sinergetika esa xaosni tushunishda mutlaqo boshqa ma’nolarni kiritdi. Sinergetika xaosni ko‘p qirrali asos sifatida belgilab, nafaqat yaxlit strukturalarni parchalashi va yo‘q qilishi, balki dunyo mavjudligining yangi, ijodiy kreativ jihatini yaratishini ham anglatadi. Xaos konstruktiv kuch bo‘lib, ma’lum sharoitlarda va muayyan tasodifiy fluktuatsiyalar to‘plamida tizim tashkillashishining sifat jihatidan yangi darajalarini yaratishi mumkin.

Sinergetik metodologiya tamoyillariga ko‘ra, tizimning xaotik holatini iloji boricha “uzaytirish” kerak, chunki aynan u o‘z faoliyatini amalga oshiradigan moddiy va nomoddiy rejimlarga ijodiy rezonans ta’sirni keltirib chiqaradi. Tizim mavjudligining etaloni tizim holatlarining simmetriyasi emas, balki shu simmetriyaning spontan buzilishidir. Tizimga ta’sir odatdagi maqsadga muvofiqlik va kutilgan natijaga yo‘naltirish xususiyatlarini yo‘qotadi. Aksincha, u xaosni situativ boshqarish hodisasiga olib keladigan muayyan ijodiy o‘yin xarakteriga ega bo‘ladi. Bu xuddi dorbozlik – baland dor ustida tomosha ko‘rsatish san’atini (noturg‘un holatda ham gavda muvozanatini saqlash mahoratini) eslatadi.

Sinergetik paradigma tarafdorlari xaotik holatdagi tizimlarning beqarorligi ularni boshqarishga nisbatan o‘ta sezgir qilishini doimiy ravishda ta’kidlaydilar. Bunda muvozanat holatidan uzoq bo‘lgan tizimga lokal ta’sirlarning ehtiyotkorlik bilan asoslangan texnologiyasi talab qilinadi. Tizim rivojlanish trayektoriyasida bunday kichik lokal ta’sirlar uni progressiv attraktordan uzoqlashtirmaydi va uning yaxlitligini saqlashga imkon beradi.

Albatta, ijtimoiy sinergetikani rivojlantirish va konseptualizatsiya qilish dasturi tegishli tushunchalar va metodologik tildan foydalangan holda tartibsiz va doimiy o‘zgarib turadigan ijtimoiy hayotni uzatishning istiqbolli vazifasiga asoslanadi. Biroq, uning tavsifi xilma-xil proyeksiyalarda va zamonaviy ijtimoiy reallikning muhim asoslarini turli darajada aniqlash bilan imkonlidir. Bu holatda o‘z-o‘zini tashkillashtirish nazariyasining sinergetik analogiyalari va metafora tilidan foydalanish konseptual konstruksiyalarning empirik cheklovlarini muvaffaqiyatli yengib o‘tishni kafolatlamaydi. Shu sababli bugungi kunda xaosni nazorat qilishning yetarlicha samarali dasturini asoslash uchun qilinayotgan urinishlar hali ham asosan deklarativ bo‘lib, samarasiz faoliyat ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tizimning xaotik holatiga nozik regulyativ vosita maqomini berishga mo‘ljallangan boshqaruv qarorlari algoritmini topish, tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-gumanitar bilimlarni sintez qilish sohasida qat’iy yutuqlarni talab qiladigan global murakkablikdagi vazifadir. Shuning uchun sinergetik metodologiyani ijtimoiy-madaniy hodisalar va jarayonlar sohasiga yetarlicha asoslanmasdan kiritishda juda ehtiyot bo‘lish kerak. Sinergetika zamonaviy dunyoda dinamizm va beqarorlik muhimligini haqli ravishda ta’kidlaydi. Ammo ijtimoiy tizimlar barqarorligini ta’minlashning samarali metodologiyasini asoslash ham bir xil darajada muhimdir.

Yuqorida aytilganlarning barchasi, bizning nuqtayi nazarimizdan, sinergetik paradigmaning muhim integrativ salohiyati haqida xulosa chiqarishga yo‘l ochadi:

Birinchidan, uning qoidalarida fanlararo integratsiyaning asoslarini ko‘rish mumkin. “Sinergetik paradigmaning asosiy g‘oyasi dunyo haqidagi yaxlit bilimni fragmentar ilmiy predmetlarga bo‘lishning noto‘g‘riligiga ishontiradi” [20. B. 16].

Ikkinchidan, sinergetikani inson tajribasining turli qatlamlaridan kelib chiqadigan har xil turdagi bilimlarni yaxlit bilimga integratsiyalashning ilmiy maqsadi sifatida ko‘rish mumkin. Bu xuddi mifologiya, falsafa, badiiy fantaziya, orzular, kundalik bilimlarni bog‘lash kabidir [21].

Uchinchidan, G‘arb va Sharq madaniyatining asosiy falsafiy va mafkuraviy pozitsiyalari o‘rtasida ko‘prik o‘rnatadigan madaniyatlararo integratsiya vektori bo‘lishi mumkin.

Albatta, sinergetikaning bu imkoniyatlari o‘z-o‘zidan navbatdagi mifologiyaga aylanishi va natijada muvaffaqiyatsiz loyiha bo‘lib chiqishi ham mumkin. Biroq, sinergetik g‘oyalar mazmunidan kelib chiqadiki, ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning o‘z-o‘zini tashkil etuvchi dinamikasi aynan shu yo‘ldan boradi. Mifologik makonlardagi o‘zgarishlar aldanish emas, balki jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotining o‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi jihatidir.

Adabiyotlar:

1. *Merton R.K*. On social structure and science. – Chicago: University of Chicago Press, 1996. – 394 p.

2. 1970–1971: Leçons sur la volonté de savoir. – Paris, Gallimard, 2011. – 318 p.

3. *Василькова В.В.* Порядок и хаос в развитии социальных систем: синергетика и теория социальной самоорганизации. – Санкт-Петербург: Лань, 1999. – 480 с.

4. *Ergasheva M.X.* The synergistic nature of the struggle between good and evil in Zoroastrianism // Theoretical & Applied Science, 2015. – No 9. – Pp. 28– 32.

5. Sultanova G.S. The essence and nature of postnonclassical scientific thinking // Школа науки, 2019. – № 3. – С. 21–32.

6. *Тураев Б.О*. Онтология, гносеология, логика ва фан фалсафаси муаммолари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2015. – 249 с.

7. *Ulmasjonovich K.S.* Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) // European Scholar Journal, 2021. – Vol. 2. – No 11. – Pp. 45–48.

8. *Capra F.* The Tao of physics: an exploration of the parallels between modern physics and eastern mysticism. – Boston: Shambhala, 2000. – 366 p.

9. *Рахманов Б.У.* Античная философия и идеи духовно-психической самоорганизации человека // Credo new, 2016. – № 1. – С. 2–12.

10. *Dull A.* The Tao of Physics: An Exploration of the Parallels between Modern Physics and Eastern Mysticism. – New York: Magazine, 1978. – 390 p.

11. *Prigogine I., Stengers I.* Time, chaos, quantum. On the solution of the paradox of time. – Moscow: Editorial, URSS, 2000. – 240 p.

12. *Князева Е.Н., Курдюмов С.П*. Законы эволюции и самоорганизации сложных систем. – Москва: Наука, 1994. – 122 с.

13. *Гомаюнов С*. От истории синергетики к синергетике истории // Общественные науки и современность, 1994. – № 2. – С.99–106.

14. *Григорьева Т.* Синергетика и Восток // Вопросы философии, 1997. –№ 3. – С.90–102.

15. *Тўраев Б.О., Эргашева М.Х., Раҳмонов Б.У., Мўминова З.О., Очилов Ж.* Синергетика: моҳияти, қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши. – Тошкент: Наврўз нашриёти, 2017. – 286 с.

16. *Bozarov D.M., Karimova G.Y*. Role of The Self-Organization Model in Complex Social Systems // Oriental Journal of Social Sciences, 2021. – No 2. – Pp. 1–9.

17. *Foucault M*. This is not a pipe. // Univ of California Press, 1983. – No 24. – Pp. 51–59.

18. *Попова И.М*. Повседневные идеологии. Как они живут, меняются и исчезают. – Киев: Институт социологии НАН Украины, 2000. – 219 с

19. *Шалаев В.П.* Социосинергетика: истоки, теория и практика в современном мире. – Санкт-Петербург: Лань, 2015. – 245 с.

20. *Schütz A., Luckmann T.* Strukturen der lebenswelt. – UTB GmbH, 2017. – 706 p.

THE EMERGENCE OF A SYNERGIC WORLDVIEW: SCIENTIFIC AND NON-SCIENTIFIC SOURCES OF HUMAN EXPERIENCE

Ilhom Rizayev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 5(73). 13-21.

[1]Samarkand Branch of Tashkent University of Information Technologies, Samarkand, 100140, str. Ibn Sino, 2 (Uzbekistan). E-mail: info@samtuit.uz

Keywords: self-organization, historical retrospective, scientific forms of knowledge, synergetics, order, chaos, antiquity, ancient Eastern mythology.

This article examines the difficulty of creating a historical retrospective of the concept of self-organization. The author points out the substantive nature of future historical information and the multi-vector nature of the idea of self-organization, which makes accurate thinking in the past and future almost impossible.

To solve the problem of the patterns of emergence and change in scientific knowledge, researchers turn to the history of the concept in question. However, there is a danger of drawing the wrong conclusion about the continuity of a scientific idea where it does not exist, or of missing the continuity of real life. The modern postmodern approach offers a broad context in which novelty is built on the basis of quotations and associations with pre-existing ideas. This complicates the question of how older studies relate to new ones.

The article also examines the broad historical outline of the description of the world, combining the theory of self-organization and other scientific forms of knowledge. The task at hand requires historical and theoretical research to consider extensive historical material related to the ideas of synergetics and self-organization.

The researcher also pays attention to the connection between synergetic constructs and Eastern philosophical and religious views. They point out the similarities between them and note that synergetics seeks to return a person to the idea of the unity of the world and overcome the inadequacy of its analytical division.

There is also a connection between synergetic constructs and Eastern philosophical and religious views. Some researchers pay attention to this similarity and note that synergetics is trying to return a person to the idea of the unity of the world and the inadequacy of its analytical division.

The author draws attention to the fact that models of understanding the world, close to the synergetic vision, exist not only in science, but also in other areas of understanding the world, such as art, philosophy and mythology. They are present in early cosmogonic ideas and myths, both Western and Eastern. Humanity relies on the logic of non-polar, non-linear synergetics in various forms of knowledge of the world.

The article also mentions the fundamental study of many modern studies in the field of self-organization – the work “From Chaos to Order” by I. Prigogine and I. Stengers, which researchers have always referred to.

In conclusion, the author emphasizes that ideas about the relationship between order and chaos in the mythology of antiquity and the Ancient East combine mythological and synergetic worldviews. The article proposes to consider these ideas in detail using examples from the cosmogonic systems of these cultures.

References:

1. Merton, R.K. (1996) *On social structure and science*. Chicago: University of Chicago Press.

2. (2011) 1970–1971: *Leçons sur la volonté de savoir*. Paris, Gallimard.

3. Vasilkova, V.V. (1999) *Poryadok i haos v razvitii social’nyh sistem: sinergetika i teoriya social’noj samoorganizacii* [Order and chaos in the development of social systems: synergetics and the theory of social self-organization]. Sankt-Peterburg: Lan.

4. Ergasheva, M.X. (2015) The synergistic nature of the struggle between good and evil in Zoroastrianism. *Theoretical & Applied Science*. No 9. Pp. 28-32.

5. Sultanova, G.S. (2019) The essence and nature of postnonclassical scientific thinking. *Школа Науки*. No 3. Pp. 21-32.

6. Turaev, B.O. (2015). *Ontologiya, gnoseologiya, logika va fan falsafasi muammolari* [Problems of ontology, epistemology, logic and philosophy of science]. Tashkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.

7. Ulmasjonovich, K.S. (2021) Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). *European Scholar Journal*. Vol. 2. No 11.Pp. 45-48.

8. *Capra, F.* (2000) *The Tao of physics: an exploration of the parallels between modern physics and eastern mysticism*. Boston: Shambhala.

9. Rakhmanov, B.U. (2016) Antichnaya filosofiya i idei duhovno-psihicheskoj samoorganizacii cheloveka [Ancient philosophy and ideas of spiritual and mental self-organization of man]. *Credo new*. No 1. Pp. 2-12.

10. Dull, A. (1978) *The Tao of Physics: An Exploration of the Parallels between Modern Physics and Eastern Mysticism*. New York: Magazine, 1978. 11. Prigogine, I., Stengers, I. (2000) *Time, chaos, quantum. On the solution of the paradox of time*. Moscow: Editorial, URSS.

12. Knyazeva, E.N., Kurdyumov, S.P. (1994) *Zakony evolyucii i camoopganizacii clozhnyx cictem* [Laws of evolution and self-organization of complex systems]. Moscow: Наука.

13. Gomayunov, C. (1994) Ot ictopii cinepgetiki k cinepgetike ictopii [From the history of synergetics to the synergetics of history]. *O6shchectvennye nayki i covpemennoct’.* No 2. Pp. 99-106.

14. Gpigoryeva, T. (1997) *Cinepgetika i Voctok* [Synergetics and the East]. *Voppocy filocofii*. No 3. Pp. 90-102.

15. Turaev, B.O., Ergasheva, M. Kh. (ed.) (2017), Rakhmonov, B. U., Mu`minova, Z. O., & Ochilov, Zh. (2017). *Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bulishi.* Tashkent: “Navruz” nashriyoti.

16. Bozarov, D.M., Karimova, G.Y. (2021) Role of The Self-Organization Model in Complex Social Systems. *Oriental Journal of Social Sciences*. No 2. Pp. 1-9.

17. Foucault, M. (1983) This is not a pipe. *Univ of California Press*. No 24. Pp. 51-59.

18. Popova, I.M. (2000) *Povsednevnye ideologii. Kak oni zhivut, menyayutsya i ischezayut* [Everyday ideologies. How they live, change and disappear]. Kyiv: Institute of Sociology of the National Academy of Sciences of Ukraine.

19. Shalaev, V.P. (2015) *Cociocinepgetika: ictoki, teopiya i ppaktika v covpemennom mipe* [Sociosynergetics: origins, theory and practice in the modern world]. Sankt-Peterburg: Lan.

20. Schütz,A., Luckmann, T. (2017) *Strukturen der lebenswelt*. UTB GmbH.

Muallif haqida ma'lumot:

RIZAYEV Ilhom Imomaliyevich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti. E-mail: rizayev@samtuit.uz